

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

Hamrayev G'iyos Raxmonqulovich
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlarining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan va xulosa qilinib, kengroq yoritilgan

Kalit so'zlar: Daromad, mahalliy budjet, soliq, budjet-soliq, biznes, moliya, moliyaviy barqarorlik, korxonalar, o'sish sur'atlari.

Bugungi kunda fiskal siyosat doirasida olib borilayotgan islohotlar mamlakat farovonligini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlarda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, byudjet-soliq siyosatidagi munosabatlarni takomillashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish eng muhim vazifalar hisoblanadi.

Mahalliy byudjet daromadlarini kengaytirish hamda soliq to'lovchilarni aniqlashtirish va unga nisbatan yondashuvlarni asoslangan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mahalliy byudjetlarni moliyaviy barqarorligini oshirish mamlakat miqyosida bir xil xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin, lekin hududiy nuqtai nazardan o'zaro farqlanishi mavjud bo'ladi. Mahalliybyudjetlarning ijrosini ta'minlash va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash moliyaviy strategiyaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ikki jihatdan qaralishi mumkin. Birinchidan, daromadlar bazasining yaxshi shakllanganligi, ikkinchidan xarajatlarning barqarorligiga erishilishi bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yilning 9 iyun kuni bo'lib o'tgan milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga doir dolzarb masalalar

muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarini sanab o'tdi.

Yig'ilishda davlat rahbari yangicha yondashuv va instrumentlarni qo'llash orqali joriy yil iqtisodiyotda o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar borligini ta'kidlab, shu boradagi 8 ta asosiy yo'nalishni ko'rsatib o'tdi. Mazkur farmon 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamdama halliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy, kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni o'z-siz ta'minlash yuzasidan mahalliy hokimiyatorganlarining mustaqil ish olib borishi va mas'uliyatini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Bu yo'nalishlarning birinchisi, iqtisodiyot va byudjet barqarorligini ta'minlash ekanligi ta'kidlanib, barcha sohalarga byudjet tushumi va xarajatlarini optimallashtirish topshirildi.

Korxonalar faoliyatini qayta tiklash va soliq ma'muriyatchiligini yaxshilash hisobiga qo'shimcha daromadlarni ta'minlash, tashqi qarz bitimlarini tuzishda belgilangan cheklovdan oshmaslik bo'yicha ko'rsatma berildi²¹. Bizningcha, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi samarali ishlashi ko'p jihatdan hududning moliyaviy potensialiga bog'liq hisoblanadi. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan vertikal moliyaviy va kolatlarni gorizontal xususiyatga o'tkazishni taqozo etadi. Ushbu holatning joriy etilmasligi moliyaviy mustaqillikni istiqbolini mavhumlashtiradi. Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasini shakllantirishning muhim omili bo'lib – moliyaviy mustaqillik hisoblanadi.

Mahalliy byudjet o'zlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy jihatdan amalga oshirish uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi hisoblanadi.

²¹ Иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш бўйича асосий йўналишлар белгиланди//Халқ сўзи, 2020 й.

Shu boisdan, mahalliy byudjetlarning xarajatlarini amalga oshirishdagi barqarorligi moliyaviy staregiyani mustaqil shakllantirishdagi vakolatlarning mavjudligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston sharoitida mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Bunda xarajatlar yagona huquqiy hujjat bilan belgilanadi va daromadlar markazga to‘planib, qayta taqsimlash orqali hududlarga beriladi.

Umuman olganda, «Mahalliy byudjet deyilganda, Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi».

Aytish joizki, mahalliy byudjetlar yordamida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash uchun moliyaviy mablag‘lar yo‘naltiriladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan, prof. A.Burxanov va dos. X.Qurbonov hududlarda mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy xulosalarini asoslab berishadi. Ular tadqiqotlarini hududlar misolida amalga oshirishadi. Natijada quyidagi ilmiy xulosalarni keltirishadi: birinchidan, Hududlarda davlat byudjetiga undirilgan daromatlarda nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarning ulushi yuqori bo‘lmoqda. Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan davrlarda hududlarning ayrim tumanlarida hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, ya‘ni kichik biznes va xususiy tadbirkorilikni jadal rivojlantirish, investitsion faollikni yanada rivojlantirish hisobiga yangi korxonalar barpo etish, iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lomshtirish, soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish va norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi sub’ektlarni qonuniy faoliyat yuritishlarini ta‘minlash bilan bog‘liq qator islohotlar natijasida ta‘minlanmoqda, deya qayd etishadi.

Dos. N.Korotina mahalliy byudjetlar moliyaviy holatini baholashga nisbatan tahlil metodikasini taklif etadi. Unga ko‘ra, ko‘rsatkichlar beshta guruhga ajratib z ko‘rsatiladi, ular²²: balanslashtirilgan mahalliy byudjet ko‘rsatkichlari, munitsipal

tuzilmaning moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari, byudjet xarajatlari sohasida munitsipal byudjet siyosati yo'nalishlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar, munitsipal tuzilmaning byudjeti barqarorligi ko'rsatkichlari, munitsipal tuzilmaning qarzdorlik ko'rsatkichlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007
2. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizastiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007.
3. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2009.
4. [Shodmonov Sh.](#), Minovarova G va Xalilov M. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi.
5. Shodmonov Sh va Minovarova G."Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2007
6. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Moliya. 2002
7. [Manifestation of destructive religious behavior in personal characteristics](#) - D.B.Mukhiddinova.
8. [Determination of children's abilities](#)- D.B.Mukhiddinova.